

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari .....	444
<b>I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva</b>	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish .....	448
<b>M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva</b>	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi .....	455
<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
<b>O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova</b>	
The structure of speech acts in various types of discourse .....	462
<b>X.M.Sotvaldieva</b>	
Paremiologiya fan sifatida .....	467
<b>A.E.Botirova</b>	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar .....	473
<b>R.Radjabov</b>	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar .....	478
<b>M.N.Raxmanova</b>	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari .....	482
<b>U.B.Almaz, O.X.Barziyev</b>	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar .....	486
<b>D.Sh.Islomov</b>	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida .....	493
<b>M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev</b>	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
<b>G.A.Saydaliyeva</b>	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
<b>G.N.Isakova</b>	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
<b>J.J.Egamberdiyev</b>	
Lug'at zamon va davr elchisi .....	511
<b>Sh.Sh.Zarmasov</b>	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili .....	515
<b>G.P.Nazarova, F.B.Alimova</b>	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
<b>S.A.Mannonova</b>	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari .....	526
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context .....	529
<b>A.K.Usmonov</b>	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari .....	533
<b>N.K.Abbasova</b>	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms .....	538
<b>D.G.O'rinboyeva</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar .....	542
<b>N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova</b>	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
<b>Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова</b>	
Когнитивный подход к анализу художественного текста .....	550



UO'K: 811.133.1

**FRANSUZ TILIDAGI MUQADDAS MATNLARGA OID QANOTLI IBORALARNING SEMANTIKASIGA DOIR****О СЕМАТИКЕ ФРАНЦУЗСКИХ КРЫЛАТЫХ ВЫРАЖЕНИЙ ОТНОСЯЩИХСЯ К СВЯЩЕННЫМ ТЕКСТАМ****ABOUT THE SEMANTICS OF FRENCH WINGED EXPRESSIONS RELATING TO SACRED TEXTS****Isakova Guzalxon Ne'matovna**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute filologiya fanlari doktori, dotsent  
ORCID: 0009-0008-3168-9580**Annotatsiya**

Qanotli iboralar alohida til birligi sifatida o'z mavqeyiga, o'rniga ega bo'lib, ular turg'unlik, ma'nodorlik, alohida shakllanganlik, faol qo'llanuvchanlik, biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanish, ongda qayta in'ikos etishlik, muallif yoki manbaga egalik jihatlari bilan farqlanadi. Fransuz tilidagi qanotli iboralarning kelib chiqish manbalari turlicha bo'lib, ularning orasida muqaddas matnlar alohida o'rin tutadi. Mazkur qanotli iboralar mazmun va mohiyatiga ko'ra serqirradir. Ular shaxsning dunyoga kelishidan boshlab, uning xarakteri, holati, shaxslararo munosabati hamda turmushda kuzatiladigan turli qarama-qarshiliklar, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni obrazli tavsiflay oladi. Quyidagi maqolada muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasi haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация**

Крылатые выражения имеют свою позицию и место как отдельная языковая единица, они отличаются такими качествами как устойчивость, осмысленность, раздельнооформленность, активное употребление, ассоциации с событием или явлением, воспроизводимость в сознании, принадлежность к определенному автору или источнику. Источники происхождения французских крылатых выражений различны, среди них особое место занимают священные тексты. Эти крылатые выражения богаты по содержанию и сути. Они могут образно описать характер человека, ситуацию, межличностные отношения, а также различные противоречия, природные и социальные явления, наблюдаемые в жизни, начиная с рождения человека. В следующей статье рассматривается семантика крылатых выражений, относящиеся к священным текстам.

**Abstract**

Winged expressions have their own position and place as a separate linguistic unit; they are distinguished by such qualities as stability, meaningfulness, separate design, active use, associations with an event or phenomenon, reproducibility in the mind, belonging to a specific author or source. The sources of origin of French catchphrases are different, among which sacred texts occupy a special place. These popular expressions are rich in content and essence. They can figuratively describe a person's character, situation, interpersonal relationships, as well as various contradictions, natural and social phenomena observed in life, starting from the birth of a person. The following article discusses the semantics of the winged expressions of the sacred texts.

**Kalit so'zlar:** fransuz tili, qanotli ibora, manba, muqaddas matn, Bibliya, semantik xususiyat, obrazli, ma'nodor, lo'nda.

**Ключевые слова:** французский язык, крылатое выражение, источник, священный текст, Библия, семантический особенность, образный, значимый, лаконичный.

**Key words:** the French language, catchphrase, source, sacred text, Bible, semantic feature, figurative, meaningful, laconic.

**KIRISH**

Jahon tilshunosligida til birliklari va ularning qo'llanilishi bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutadi. Qanotli iboralarning keng ko'lamda o'rganilishi ularni boshqa til birliklaridan aniq chegaralash, semantik qirralarini ochib berish, stilistik jihatdan qo'llanilish masalalarini keng yoritish imkonini beradi. Xususan, qanotli iboralarning semantik tahlili, badiiy matnda ularning turli stilistik

## TILSHUNOSLIK

usullarda qo'llanilishi, nazariy-ilmiiy jihatdan esa qanotli iboralarning o'ziga xos belgilari yetarlicha ilmiy asoslab berilmaganligi ularni tizimli tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda turg'un birliklar va ularning nutqda qo'llanilishi bo'yicha fundamental ishlarni amalga oshirishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Turg'un birliklarning tahlili va tadqiqi, ularning qo'llanilishi hamda tillararo munosabatini ochib berish masalalari yanada dolzarblashib, kelgusidagi tadqiqotlar istiqbolini belgilab bermoqda. Jumladan, nutqning ta'sirchanligini, shiralliligini oshirishga xizmat qiladigan va obrazli sitata sifatida foydalanilayotgan aniq iboralar, ya'ni *qanotli iboralar* muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ilmiy adabiyotlarda qanotli iboralarga xos bo'lgan xususiyatlar va ularni izohlash bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Lekin deyarli barcha tadqiqotlarda qanotli iboralarning muhim xususiyati ularning manba va muallif bilan bog'liqligi qayd etilgan. Qanotli iboralar bo'yicha ilk tadqiqotlarga nazar tashlasak, ya'ni G.Byuxman ham qanotli iboralarda manba yoki badiiy kelib chiqishi aniqlangan bo'lishi kerakligini aytadi. S.G.Zaymovskiy ham "qanotli iboralarning ilk manba bilan aloqasi yoki individual initsiator tomonidan kuzatilgan yoki o'rnatilgan bo'lishi kerak" [6, 14-15], deb ta'kidlaydi.

N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalar qanotli iboralarning chegaralovchi belgilari sifatida "badiiy yoki tarixiy aniqlangan manba"ga ega bo'lgan birliklar kirishi mumkin [1, 3-е изд., –С.4], deb fikr bildirgan bo'lsa, M.A.Bulatov qanotli iboralarni maqol va matallardan ajratib turuvchi asosiy belgisi "ularning ma'lum muallifga ega ekanligi", deb ta'kidlaydi [4, 3]. S.G.Shulejkova qanotli iboralarning manbasi deganda, "bir tomondan ma'lum individual yaratuvchiga ega bo'lgan badiiy asarlar (fan, san'at), boshqa tomondan – kollektiv ijod mevalari – miflar, afsonalar, aytishuvlar, dostonlar, qo'shiq, topishmoq, folklor asarlari va qanotli birliklarni hosil qiluvchi muqaddas yozuvlarga o'xshagan diniy bayonlar tushuniladi" [10, 130], deb fikr bildiradi. A.M.Babkin: "Qanotli iboralar turkumiga an'ana bo'yicha kiruvchilar kelib chiqishi jihatidan yetarli darajada turlichadir" degan [2, 109-110]. E.M.Soloduxo, internatsional frazeologiya masalalari bilan shug'ullanib, Bibliya, antik va jahon adabiyotidan kelib chiqqan qanotli iboralar tahliliga katta e'tibor qaratgan. Muallif qanotli birliklarning "manbasi" terminiga qo'shimcha ravishda "boshlang'ich manba" tushunchasini ham kiritadi va manbaga nisbatan ham boshlang'ich manbaga keng e'tibor qaratadi [9, 133-134].

Aytish mumkinki, qanotli iboralarning eng to'liq manbalari ro'yxati N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalar lug'atining so'nggi nashrlarida berilgan, ya'ni ushbu lug'atning 4-nashrida mualliflar: "Antik adabiyot va Bibliyaga oid afsonalar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, jahon badiiy adabiyoti, tanqid, publitsistika, yodgorliklar, tarixiy hujjatlar, ilmiy bayonlar, ijtimoiy va siyosiy arboblarning nutqlari qanotli iboralarning sermahsul manbasi hisoblanadi" [1, 4-е изд., –С.5], degan xulosaga kelishadi. O.V.Berkovanning nomzodlik dissertatsiyasida ham qanotli iboralarning manbalari bo'yicha qarashlari mavjud [3, 87-88].

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Fransuz tilidagi mavjud qanotli iboralarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, ularning orasida muqaddas matnlarga oid qanotli iboralar katta miqdorni tashkil etadi. Fransiya davlatida turli dinga mansub aholi istiqomat qiladi. Bular: katoliklar, protestantlar, musulmonlar, yahudiylar, buddistlar va boshqa din vakillari. Manbalarda berilishicha, Fransiya xalqining 81,4 foizini katoliklar tashkil etar ekan [12]. Ma'lumki, katoliklik – xristian dinining Rim papasi boshliq mazhabi. Demak, Bibliya ular uchun muqaddas kitob sanaladi. Bibliya so'zi yunoncha "biblion" so'zidan olingan bo'lib, kitoblar ma'nosini anglatadi [8, 77]. Bibliyada dunyo va insonlarning paydo bo'lishi haqida gap boradi. Injilning so'z boshisida "Muqaddas kitob haqida"gi ma'lumotlarga ko'ra Bibliya ikki qismga: Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo'linadi. Qadimgi Ahd Tavrot va Zabur kitoblarini, ya'ni Iso Masih tug'ilishidan avvalgi davrni o'z ichiga oladi. Yangi Ahd, ya'ni Injil Iso Masih tug'ilgandan keyin yozilgan. Qadimgi Ahd eski yahudiy tilida, Yangi Ahd matni esa qadimgi yunon tilida yozilgan [7].

Bibliya uzoq davrlar mobaynida barcha savodli shaxslar o'qiydigan birdan bir kitob bo'lgan. Shuning uchun xristian diniga mansub xalqlar tillarida ko'plab Bibliyaga oid qanotli so'zlar kuzatiladi. Qanotli iboralarning turli manbalari orasida Bibliya alohida o'rin tutadi. Bibliyaning madaniy bilim manbasi sifatidagi rolini baholash qiyin. Bibliya haqiqatan ham jahon madaniyatining buyuk ko'rinishi hisoblanadi. U ming yilliklar davomida ham o'z mohiyatini yo'qotmagan va ko'p sonli qanotli iboralarning manbasi bo'lib kelganligini ham hech kim inkor etmaydi.

Hozirgi kunda Bibliyadan kelib chiqqan qanotli iboralar "Ikkinchi tug'ilish davrini boshdan kechirmoqda" [10, 37], deb yozadi S.G.Shulejkova. Chunki ko'p yillar davomida bir nechtagina ishlarda (A.M.Babkin, E.M.Soloduxo, Z.N.Semenova, I.D.Finikova, V.V.Kolesov, I.Xarazinskiy) Bibliyaga oid qanotli iboralarning lingvistik tahlillari o'tkazilgan.

A.M.Babkinning ta'kidlashicha, "Zamonaviy rus adabiy tili frazeologik birliklari doirasida kelib chiqishi diniy manba xarakteri bilan bog'liq bo'lgan idiomatik iboralar sezilarli o'rinni egallaydi" [2, 191]. O.A.Berkova, qanotli iboralar – sitatalar tipologiyasi bilan shug'ullanib, boshqacha fikr bildiradi: "Bibliyadan olingan sitatalar sonini aniq baholash qiyin". Buni tadqiqotchi "sitatadan tashqari, o'z manbasining belgisini yo'qotgan, lekin o'zida Bibliyaga xoslikni aks ettirgan ko'p sonli sitatalar mavjud", deb tushuntiradi [3, 8-89].

Shuningdek, Y.A.Gvozdarev o'zining bibleizmlarga bag'ishlangan maqolasida ularni quyidagi guruhlarga ajratadi: 1) Bibliyaning umumiy ma'nosi bilan determinlashgan, lekin matnda ushbu ko'rinishda kuzatilmaydigan; 2) semantik determinlashgan va ma'lum personaj yoki hikoyat bilan bog'liq; 3) leksik determinlashgan, ya'ni Bibliyada boshqa ma'noda kuzatiladigan; 4) leksik va semantik determinlashgan, ya'ni Bibliyaning o'zida frazeologik birlik sifatida namoyon bo'lgan. Muallif "Bibliyaga oid frazeologik birliklar ostida bir necha so'zdan iborat bo'lgan, doimiy in'ikos etiladigan Bibliya matni bilan leksik va semantik determinlashgan rus tilidagi iboralarga birikkanlari tushuniladi", degan izohni beradi [5, 26-34].

Ko'rinadiki, kelib chiqishi Bibliya bilan bog'liq bo'lgan qanotli iboralar borasida tadqiqotchilarning fikrlari turlicha. Shunga ko'ra, fransuz tilidagi bibleizmlarni kuzatish ahamiyatlidir.

Ma'lumki, har bir xalq ko'p sonli qanotli iboralardan yaxshilik va yomonlik tushunchalariga mos keladigan, go'zallik, haqgo'ylik, xalq orzu-umidlarini ifodalaydigan, uning estetik talablariga mos keladiganlarini tanlab oladi. Fransuz xalqining ham Bibliyaga bo'lgan kuchli e'tiqodini fransuz tilida faol qo'llanib kelinayotgan ko'p sonli Bibliyaga oid qanotli iboralar belgilaydi. Shu o'rinda mazkur qanotli iboralarning ko'pchilik qismi ilk bora lotin tilida vujudga kelganligini aytib o'tish joiz.

Bibliyadan kelib chiqqan qanotli iboralarning qamrovi juda keng: insonning tug'ilishidan boshlab, uning xarakteri, holati, shaxslararo munosabati, turmushda kuzatiladigan turli qarama-qarshiliklar, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tavsiflovchi ko'rinishdagi qanotli so'zlardir.

Avvalo, insonning o'z yaratuvchilari bilan bog'lab turadigan qanotli iboralarni keltirish o'rinlidir. Masalan, insonning Adam yoki Yeva kabi yalang'och, kiyimsiz holati (*En costume d'Eve – Yeva kiyimida; En costume d'Adam – Adam kiyimida*), ular yer yuzidagi ilk insonlar bo'lgani uchun, ayollarni Yevaning, erkaklarni esa Adamning izdoshlari sifatida ko'rilishi (*Filles d'Eve – Yevaning qizlari, Fils d'Adam – Adamning o'g'illari*), Yevaning aybini barcha ayollar ko'tarib yurishi (*Malédiction d'Eve – Yevaning qarg'ishi*), hech ham ko'rmagan, tanimagan holatlarni izohlash (*Ne connaît ni d'Adam, ni d'Eve – Adamni ham, Yevani ham tanimaslik*) va boshqalar.

Jamiyatda kuzatiladigan turli vaziyat va holatlarni ifodalaydigan: tarqoq fikrli uyushmalar, murosasiz yig'inlar (*Tour de Babel – Vavilon minorasi*), bir-biriga mos bo'lmagan kishilar bilan to'lgan joy (*Arche de Noé – Nuhning kemasi*), qilingan gunohlar uchun jazoning mavjudligi (*Dix plaies d'Egypte – Misrning 10 balosi*), o'ta maxfiy joy yoki eng nozik sir (*Le Saint des Saints – Avliyolarning avliyosi*), tartibsiz, axloqsiz joylarni anglatuvchi (*Sodome et Gomorrhe – Sodom va Gomorra*), ko'pchilikni bildirish (*Ils s'appellent légion – Ularning ismi tumonat*), boshlanishi va tugashi, asosiysi (*L'Alpha et l'oméga – Alfa va omega*), eng kattadan to eng kichikkacha, boshdan oyoq (*Depuis le cedre jusqu'à l'hysope – Kedrdan to issopgacha*) kabi qanotli so'zlar faol qo'llanadi.

Shaxslarda kuzatiladigan turli xatti-harakatlar: insonning oltin, boylik to'plashga harakat qilishi (*Adorer le veau d'or – Oltin buzoqqa sig'inmoq*), shaxsning baxt va huzur-halovatli joyga intilishi, orzu qilishi (*Terre promise – Va'da qilingan yer*), ko'plab insonlarda kuzatiladigan hayotdagi o'z majburiyatini bajarish hissining mavjudligi (*Porter sa croix – O'z hochini ko'tarib yurmoq*), halol mehnat qilib kun ko'rish hissi (*Gagner son pain à la sueur de son front – Peshona terisiga ishlab topmoq*), uning taqdir inoyatini doimo kutib yashashi (*Manne céleste – Samoviy manna*), imkon qadar, atrofdagilarga yordam berish, chin yurakdan hissa qo'shishlik (*L'obole de la veuve – Bevaning chaqasi, tangasi*), hayotdagi muammo va qiyinchiliklarga chidash, bardosh berish (*Boire le calice (jusqu'à la lie) – Kosani oxirigacha ichmoq*), imkon boricha insonlarga yaxshilik qilish hissi (*Ouvrir les portes du paradis – Jannat eshiklarini ochmoq*) yoki aksincha,

## TILSHUNOSLIK

yo'lini to'sib qo'yish, imkon bermaslik (*Fermer les portes du paradis – Jannat eshiklarini yopmoq*), ba'zi sabablarga ko'ra boshqalarning aybiga javob berish (*Bouc émissaire – Gunohkor echki*), turli sharoitlar tufayli yo'ldan adashish (*Brébie égarée – Adashgan qo'y*), yum-yum yig'lamoq (*Pleurer comme une Madeleine – Magdalena kabi yig'lamoq*) singari qanotli iboralar shular jumlasidandir.

Shuningdek, insonga xos: rahmdillik, samimiylik (*Le bon Samaritain – Rahmdil Samaritenlik*), sotqinlik, xoinlik (*Dalila – Dalila, Judas – Yahuda, Baiser de Judas – Yahudaning o'pichi, Vendre pour trente deniers – 30 tanga uchun sotmoq*), soxta va yolg'on do'stlar (*Amis de Job – Ayyubning do'stlari*), odatda indamas va itoatkor odamning bir kun kelib isyonkorlik qilishi (*Ânesse de Balaam – Balaamning eshagi*), ikkiyuzlamachilik, birdaniga ikki tomonga xizmat qilish (*Servir Dieu et Mammon – Ham Xudoga ham Mammonga xizmat qilmoq*), o'ta qiziquvchanlikning ba'zida jazolanishga olib kelishi (*Femme de Loth – Lotning xotini*), tez va odil hukm chiqarish (*Jugement de Solomon – Solomonning hukmi*), g'ayritabiiy kuchni ifodalovchi (*Mâchoire d'âne de Samson – Samsonning eshak jag'i*), ochko'zlik bilan tanovvul qilish (*S'escrimer des armes de Samson – Samson quroli bilan harakat qilmoq*), juda qari, juda mo'ysafid (*Vieux comme Mathusalem – Matusalemdek qari, Vieux Adam – Qari Adam*), quruq gavda, quruq savlat (*Colosse aux pieds d'argile – Loy oyoqli ulkan haykal*), yomon yo'lga kirgan, lekin tavba qilishga tayyor bo'lgan shaxs (*Enfant prodigue – Noqobil farzand*), ishonch hissi (*Foi qui transporte (deplace) les montagnes – Ishonch-tog'ni ko'chiradi*) singari turli xarakter-xususiyatlarni ifodalovchi qanotli iboralar fransuz tilida alohida o'rin tutadi.

Masalan, *Balaamning eshagi* (fr. *Ânesse de Balaam*) qanotli iborasining kelib chiqishiga nazar tashlaylik. Bibliya hikoyatlariga [11] ko'ra, sehrgar Balaamning bir eshagi bo'lgan ekan. U egasi tomonidan muntazam kaltaklanib turilishiga qaramay, egasiga doimo sodiq qoladi va hatto uning hayotini saqlab qoladi. Bir kuni qirol Valak Balaamni huzuriga chorlaydi. Yo'lda ketayotganida Xudoning amri bilan uning yo'lga qilichdan to'siq qo'yilganligini eshagi sezib qoladi va yo'lidan qaytadi. U egasining bergan zarbalariga qaramay, dalani kesib yeldek yugurib ketadi. Egasi bo'lsa o'ziga bo'lgan xavfni ko'rgani ham, tushungani ham yo'q. Shunda eshak alamidan isyon ko'taradi va gapira boshlaydi. Shundan kelib chiqib *Balaamning eshagi* qanotli iborasi odatda indamas va itoatkor odamning bir kun kelib isyon ko'tarib qolishiga nisbatan qo'llanadi.

## XULOSA

Fransuz tilida qo'llanayotgan muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning qamrovi juda keng va ular hozirgi kunda faol qo'llanuvchanligi bilan xarakterlanadi. Qanotli iboralar semantik jihatdan yaxlit ma'no anglatuvchi, turg'un, fikrni obrazli, ta'sirchan va lo'nda shaklda yetkaza oladigan, ongda qayta in'ikos etuvchanlik hamda biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanish, muallif yoki manba haqidagi genetik xotiraga egalik xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi. Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarni mazmuniga ko'ra insonning o'z yaratuvchilari bilan bog'lab turuvchi, jamiyatda kuzatiladigan turli vaziyat va holatlarni ifodalovchi va shaxslarda kuzatiladigan turli xatti-harakatlar hamda xarakter-xususiyatlarni ifodalovchi qanotli iboralar semantik guruhlariga ajratish mumkin. Turli xarakter-xususiyat va holatlarni ifodalovchi qanotli iboralar shaxsga umumiy tarzda baho berishda, ulardagi ijobiy va salbiy xarakter-xususiyatlarni ifodalashda izchildir. Ular shaxsga xos ijobiy yoki salbiy xarakter-xususiyatlarni yorqin, obrazli tasvirlab bera oladi va shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan salbiy xususiyatlarni lo'nda, ma'nodor, biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalangan holda ifodalay olishi bilan xarakterlanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ашукин Н.С., Ашукина М.Г. Крылатые слова. Литературные цитаты. Образные выражения. 3-е изд. – Москва: Худож.лит., 1966. – 824 с.; 4-е изд. – Москва: Худож.лит., 1987. – 528 с.
2. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.
3. Беркова О.В. Крылатые слова и проблемы их лексикографирования. Дисс.... канд. филол. наук. – Ленинград, 1991. – 161 с.
4. Булатов М.А. Крылатые слова. – Москва: Детгиз, 1958. – 152 с.
5. Гвоздарев Ю.А. Библизмы в русской фразеологии (к истории освоения) // Эволюция лексико-фразеологического и грамматического строя русского языка. Межвуз. сб. науч. работ / Под ред. С.Г.Шулежковой. – Магнитогорск, 1994. – С. 26-34.
6. Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. – Москва-Ленинград: Госиздат, 1930. – 493 с.

7. Инжил. Муқаддас китоб. – Стокгольм: Библияни таржима қилиш институти, 1992. – 296 б.
8. Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1985. – 608 с.
9. Солодухо Э.М. Проблема интернационализации фразеологии (на материале языков славянской, германской и романской групп). – Казань: Изд-во Казанского унив-та, 1982. – 168 с.
10. Шулежкова С.Г. Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие. – Челябинск: Факел, 1995. – 223 с.
11. La Bible, Livre des Nombres. Chapitres: 22-24.
12. Isakova G.N. Fransuz tili qanotli so'zlarining semantik va stilistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Zamon poligraf, 2023. – 188 b.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-5 жилдлар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2006-2008.